O‘ZBEK TOVUSHSHUNOSLIGINING AYRIM MUAMMOLARI

Misliddinova Malika Xolbayevna
Guliston davlat Pedagogika institute
f.f.d., dotsent
E-mail: malikamisliddinova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilining tovushlar tizimi va imlo me’yorlarining mosligi muhokamasi, tovushlar tizimini mukammal o‘rganish ayrim so‘zlar etimologiyasini to‘g‘ri belgilanishiga asos bo‘lishi, turkiy tillar tarixida unlilar miqdorinining kuzatilishi, undosh tovushlardagi kuchli va kuchsiz talaffuz etilish ma’no farqlashga xizmat qilishi haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: turkiy til, turkiy tillar oilasi, o‘zbek tili, tovushlar tizimi,unli va undosh, asos til, etimologik tahlil, singarmonizm qonuniyati, labial singarmonizm, palatal singarmonizm.

Abstract: This article discusses the correspondence between the Uzbek language’s sound system and spelling norms, emphasizing that a thorough study of phonetics provides a foundation for correctly determining the etymology of certain words. It also examines the observation of vowel quantity in the history of Turkic languages and explains how the strong and weak pronunciation of consonants contributes to distinguishing meanings.

Keywords: Turkic language, Turkic language family, Uzbek language, sound system, vowels and consonants, root language, etymological analysis, law of synharmonism, labial harmony, palatal harmony.

Аннотация: В данной статье рассматривается соответствие между звуковой системой узбекского языка и нормами орфографии. Подчеркивается, что глубокое изучение фонетической системы служит основой для правильного определения этимологии отдельных слов. Также анализируется количество гласных в истории тюркских языков и показано, как сильное и слабое произношение согласных способствует различению значений.

Ключевые слова: тюркский язык, семья тюркских языков, узбекский язык, звуковая система, гласные и согласные, исходный язык, этимологический анализ, закон сингармонизма, лабиальный сингармонизм, палатальный сингармонизм.

Har bir millatning asosiy belgisi til bo‘lib, u insonlararo muloqotning eng muhim va tezkor vositasi sifatida ahamiyatli. “Til millatning borlig‘i, uning oyinayi jahonidur”- deya ta’kidlanishi shundandir. O‘zbek tilini o‘qitishda ta’lim jarayonida tilning tovushlar tizimini o‘rganish muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Fonetika bo‘limining mukammal o‘zlashtirilishi keyingi bo‘limlarda so‘zlarning leksik, grammatik ma’nosini aniqlash, turkumlarga ajratish, so‘zlarning etemologiyasini belgilashdagi masalalarning to‘g‘ri hal etilishi uchun asos bo‘ladi.

Turkiy tillar tarixida til oilasi uchun turkiy til bobo til – asos til bo‘lgan bo‘lsa, keying davrlarda o‘zbek tili voris – o‘zak til vazifasini bajarib kelmoqda. Tilimiz tarixidan ma’lumki, ba’zan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli turkiy tillar imlosi bir necha marotaba o‘zgarishga uchragan.

Turkiy tilning tarixiy yozma manbalarida turk-run yozuvi oromiy yozuviga asoslangan 22 harfdan iborat bo‘lib, uni finikiyaliklar qo‘llagan, ulardan arab nobotiylar qabilasi 22 harf holida qabul qildi va o‘z tovushlar tizimini to‘liq ifodalash maqsadida 6 ta belgi qo‘shdi. Bu belgilarning ayrimlarini nuqtalar bilan bezab, 6 belgi bilan 8 tovushni ifodaladilar, shunday qilib arablarda 28 harfdan iborat alifbo yaratildi. Keyinchalik, arablarning Fors yarim oroliga yurishi natijasida 28 harfdan ibotar alifbo fors tiliga kirib keldi. Forslar ham o‘z tovushlarini imloda to‘liq ifodalash maqsadida 4 ta harf qo‘shdi. Bular: “be”-“b” shaklining nuqtalarini ko‘paytirib “pe”-“p” belgisini, “jim”- “j” harfiga ikki nuqta qo‘shib “chim”- “ch” harfini, “ro”- “r” harfidan “ĵe”- “ĵ” harfini, “kof”- “k” dan “gof”- “g” harfini yasadilar. O‘rta Osiyoga arab bosqini tufayli turkiy millatlar ham o‘z yozuvlarini o‘zgartirishga, arab – eski o‘zbek yozuviga o‘tishga majbur bo‘ldi. VIII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha yaratilgan madaniy merosimizning katta qismi shu yozuvda yaratildi. Eramizgacha va eramizda yaratilgan yozma manbalarni o‘qish va fanga ma’lum qilish uchun ham grafika tarixini, tarixiy fonetikani o‘rganish kun masalasidir.

Turk-run yozuvining 40 dan ortiq shakl(belgi)lari borligi aytiladi. Alifboda unlilar soni 4 ta, Enasoy variantida 5 ta[1]. Ayrim tilshunos olimlarning ta’kidlashicha tilimiz tarixida 9-16 unli sistemasi ham amal qilgan. Mahmud Koshg‘ariy ham dastlab ana shu muammoga duch keldi. Buning boisini, E.Umarov ta’kidlashicha, arab tilida uchta qisqa **fatha-a, kasra-i, zamma-u** va uchta cho‘ziq (**alif-a:, vov-u:, yoy-i:**) – jami olti unli mavjudligi, turkiy tillarda esa ular 9 tadan 16 tagacha ekanligi bilan izohlaydi[2].

Tilshunos olimlar Xudoyberdi Doniyorov, Bosim To‘ychiboyev tilga oid asarlarida o‘zbek tilining qipchoq dialektida 9 unlilik holati haniz saqlanib kelayotgani, bu xususiyat turkiy tillarning deyarli barchasiga taalluqli bo‘lganligi ta’kidlanadi. Fonemalar va ularning yozuvdagi ifodalanish darajasi har doim ham bir xil emas, fonema va harf o‘rtasidagi munosabat doim ham mos kelavermaydi. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy ا ,ى,و harflari unlini ifodalash bilan birga, birikma shaklida “qalin-ingichkalik” belgisi bilan farq qiluvchi va so‘z ma’nosini farqlashga xizmat qiladigan bir necha fonemani ifodalashini qayd etgan. Masalan, **ot** (**o‘t**) so‘zidagi unli qalin talaffuz qilinsa, *o‘t (olov)* ma’nosini, ingichka (**ő** tarzida) talaffuz qilinsa, *devorda va taxtadagi teshikni*, yanada ingichkaroq talaffuz etilsa, *o‘t qopchasi* ma’nosini anglatishini uqtiradi. Ko‘rinadiki, ularning har biri alohida leksema va leksemalarning ma’no tafovutini yuzaga keltirishda fonema muhim o‘rin tutadi:

“ اُوتْ **ot** - *o‘t, olov;* **اُوتْ تِيسااَغِيزْكُيْماسْ ot tëcä ag‘ëz kÿjmäc** – *o‘t degan bilan og‘iz kuymas;* **اُوتْ öt** - [و harfi ingichka (**ö** tarzida) talaffuz etiladi] *devorda va taxtada bo‘lgan teshik;* اُوتْ **öt** (و harfi yuqoridagidan ham ingichkaroq talaffuz etiladi) – *achchiqlik, o‘t* [ö]

qopchasi”[3]. Har bir xalqning nutq tovushlarini yuzaga keltiruvchi artikulyatsiyasi o‘ziga xos va bu jihat, birinchi navbatda, fonetik jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘zga tildagi ayrim tovushlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklar vujudga kelishi tabiiy hol. Qisqalik, cho‘ziqlik, ingichkalik, yo‘g‘onlik xususiyati unlilarga xos, qattiqlik va yumshoqlik xususiyati esa, undoshlarga xosligi leksemalar ma’nosini farqlashda ahamiyatlidir.

Bir tovushning **yumshoq** yoki **qattiq** talaffuzida mas’uliyat bor va u ma’noning farqlanishiga olib kelishi mumkin. Masalan: كۆك **kök** so‘zidagi **k** qattiq talaffuz etilganda *osmon,* yumshoq talaffuz etilganda esa *rang* ma’nosini berishi qayd etilgan[4]. Tarixiy manbalarda kelgan Ko‘k turk atamasi “osmon turki”, “Tangri turki” ma’nolarini beradi. Binobarin, ushbu tovushning ayrim so‘zlar tarkibida yumshoq yoki qattiq talaffuz etilishi stilistik ottenkalarni farqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham olim quyidagi fikrlarni bayon etgan: “بكج **bekäch** – *tekinlarning laqabi.* بكَچ اُرسلان تِكين **bekäch arslan tegin** kabi. Bu so‘z yumshoq **k** bilan aytilsa, **bek** so‘zining kichraytirilgani bo‘lib, mehribonlik va achinish ma’nolarini ifoda qiladi. Chunki *amir* ma’nosidagi **bek** so‘zi oxiridagi **k** yumshoq **k** dir”.

Bu stilistik nozikliklar mana bu tahlillarda yana ham oydinroq namoyon bo‘lgan: “سۅگۅتلۅك **sögÿtlÿk** – *tolzor.* Oxiri qattiq **k** bilan tugasa, shu ma’noda, agar oxiri yumshoq ك **g** bilan bitganda, tol egasi ma’nosida qo‘llanadi”. Shuningdek, كۆزَ جلَك **közÿchlÿk** – *1.xurmacha qilish (yasash) uchun tayyorlangan joy, agar so‘z oxiri yumshoq* ك ***g*** *bilan bitsa, uning egasi ma’nosini ifodalaydi.* Bu o‘rinda, 1-k “kofi as-sulbati”, 2- k “kofi ar-raqiqa”dir[5].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu holatni to‘liq anglamagan holda, -li va -lik affesklarining ma’no farqlashi sifatida ta’kidlanmoqda. Vaholangki, -lig va -lik tarzida talqin qilinsa to‘g‘riroq: Sirdaryolik- joyga nisbatan, Sirdaryolig- shaxsga nisbatan qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Demak, tilimizning tovushlar tizimini tarixiy ildizlardan boshlab o‘rganish va o‘zlashtirish tildagi qonuniyat va qoidalarning amal qilishidagi farqlanishlarini to‘g‘ri hamda aniq belgilash omili ekan. Fonetmalar o‘zgarishi jarayonlarini to‘g‘ri belgilash ko‘p holatlarda so‘zlar etimologiyasini aniqlashga yordam berishi hozirgi lingvistik tadqiqotlarda ham samara bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusova B. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: 2023- yil 11-bet.
2. Умаров Э. “Девону луғотит турк”да чўзиқ унлиларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. №5. 74-bet.
3. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. 1960-1963.I. – Toshkent: 78-79 bet.
4. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. 1960-1963.III. – Toshkent: 146-bet.
5. Misliddinova M. “Mahmud Koshg‘ariyning fonetik va fonostilistik qarashlari”. Dissertatsiya (PhD). – Samarqand: Samarqand, 115- bet.